

ZULFIYA QUROLBOY QIZI IJODIDA AYOL TIMSOLI

Munira Xazratova Uyg'un qizi

*Guliston davlat universiteti
Filologiya fakulteti Filologiya tillarni
o'qitish (o'zbek tili) 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: To'rayeva .D.N.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizi yozgan "Ayol" hikoyasining badiiy va falsafiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada asarda aks etgan ayol obrazining psixologik jihatlari, jamiyatdagi roli, muallif tomonidan yaratilgan konfliktlar va hikoyaning zamonaviy o'quvchiga ta'siri yoritiladi. Maqolada yozuvchining o'ziga xos ijodiy yo'nalishi asosida yuzaga kelgan ayol psixologiyasi va ruhiy bolamni tasvirlash badiiy detallar asosida monologik nutq vositasida yozilganini talqin etilgan.*

Kalit so'zlar: *konflikt, falsafiy xususiyat, badiiy obraz, psixologik tahlil, realistic, psixologik nasr, ayolning ruhiy olami, metafora, ichki monolog, motiv, ekspozitsiya.*

O'zbek hikoyanavisligida o'zining hikoyalari bilan nom qozongan va o'z hikoyalrida ayol obrazini mahorat bilan gavdalandira olg'a adiba Zulfiya Qurolboy qizidir. Uning asarlarida zamonaviy ayolning ichki dunyosi, jamiyatdagi o'rni va muammolari keng tasvirlanadi. Ijodkor ayol obrazining ruhiy kechinmalarini ixcham shakllarda badiiy yo'sinda ifodalashga harakat qiladi. U ayol timsolini tasvirlashda ayol hayotining biz unchalik e'tibor bermaydigan jihatlari mahorat bilan tasvirlaydi. Ayol psixologiyasiga kirib borish va uni tushunish olamning mushkul sirlaridan birini yechish bilan barobardir. Buni ijodkorlarning o'z asarlarida ayol obraziga alohida o'rin ajratib kelayotganliklaridan ham ko'rishimiz mumkin. Ayol obrazini yaratishda ijodkor bevosita 'sentementalizm' ya'ni hissiyotlar ustunligiga murojaat etadi, chunki ayol hissiyotlarga to'laligi va ularni beixtiyor namoyon qilishi bilan ajralib turadi. Mana shunday ayol obrazini yaratib uning xarakteri, ruhiyati va hissiyotlarini qog'ozga tushirib kelayotgan ijodkorlarimizdan biri Zulfiya Qurolboy qizidir. Uning "Ayol" hikoyasini yuqoridagi fikrimizga dalildir. "Ayol" hikoyasida muallif ayol obrazini jamiyat, oila va shaxsiy hayot kontekstida o'rganib, psixologik tahlil asosida hikoya qiladi. Hikoyada Nazokat obrazi misolida ayollarimizga xos kuch, sabr, har qanday vaziyatda o'zini tuta olishi kabi xususiyatlar ijodkor tomonidan mahorat bilan talqin etilgan. Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasi o'zbek adabiyotida ayol ruhiyati va ichki olamini chuqur tahlil qilishga bagishlangan nodir asarlardan biridir. Bu hikoya, yozuvchining o'ziga xos uslubi va psixologik mahorati bilan ajralib turib, zamonaviy o'quvchi uchun ham katta badiiy va manaviy ahamiyatga ega.

"Ayol" hikoyasining asosiy mavzusi – bu zamonaviy ayolning oila, jamiyat va o'z ichki kechinmalari o'rtasidagi murakkab kurashi, uning hayotiy vaziyatlardagi matonati va sabridir. Yozuvchi bitta ayol qahramonning taqdiri misolida butun bir avlod ayollarining

yelkasiga tushgan yukni, ularning ko'nglidagi sirli olamni ochib beradi. Hikoyaning asosiy g'oyasi esa ayolning zaiflik emas, balki buyuk kuch manbai ekanligini isbotlashdan iborat. Ayolning tashqi ko'rinishi qanchalik mo'rt bo'lmasin, uning qalbida yashirin iroda, kechirimli bo'lish, sevis va har qanday ogir sinovdan so'ng ham hayotni davom ettirish qudrati mujassam. Asar rashk, sadoqat, aldanish va umid kabi tuyg'ularni bir butun qilib, ayolning ruhiy olami doimiy harakatda va o'zgarishda ekanligini ko'rsatadi. Asardagi Ayol obrazining badiiy tahlili uni nafaqat bir shaxs, balki umuminsoniy qadriyatlar timsoli sifatida ko'rishga undaydi. Bu obraz an'anaviy o'zbek ayolining o'ziga xos xususiyatlarini (sabr, iffat, oilaparvarlik) o'zida mujassam etgan holda, zamonaviy dunyo tasiridagi ichki qarama-qarshiliklarni ham namoyon etadi. Uning tashqi tinchligi ortida katta ruhiy g'alayon yashiringan bo'lib, u bu g'alayonni faqatgina o'zining monologik nutqi orqali ifoda etadi.

‘Ayol’ hikoyasining ekspozitsiyasi bosh qahramon – Nazokatning hayotga bo'lgan muhabbatini ko'rsatib berishga xizmat qiladi: ‘Deraza oynasiga to'kilayotgan oppoq nur ayolning yumuq qovoqlarini qizartirdi, jilva qildi, yanoqlariga ilingan marvarid tomchilarida va barmoqlaridagi uzukning olmos ko'zlarida aks etdi’. Ayolning yanoqlaridagi marvarid tomchilari bu uning tuni bilan yig'ilab chiqqanidan dalolatdir. Hikoyada Nazokat farzandlarini qayg'uruvchi mehribon ona, eriga suyuqli rafiqa ekanligini sezish qiyin emas. Eri uni ko'rgani kelganda yuziga doim upa surib olardi. Hikoyada quyosh nuri va upa ikki motiv hisoblanadi. Quyosh nuri hali hayot tugamaganligini anglatsa, upa Nazokatga kasal holda ham ayollik jozibasini baxsh etish motivi hisoblanadi.

Psixologik tahlil nuqtayi nazaridan, hikoya ayol qalbining eng nozik torlarini chertadi. Muallif qahramonning kechinmalarini o'ta mahorat bilan yoritib bergan. Rashk va adovatdan so'ng keluvchi kechirimga intilish, umidsizlikdan keyin qayta yashashga bo'lgan iroda kabi murakkab psixologik holatlar chuqur tahlil qilingan. Ayolning xatti-harakatlari emas, balki uning xayollari, ichki mulohazalari va xotiralari asarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu uslub o'quvchiga Ayolning ruhiyatiga to'liq sho'ng'ish imkonini beradi. Hikoyada asosiy qahramonning psixologik portreti chuqur tasvirlangan. Zulfiya Qurolboy qizi o'quvchi e'tiborini qahramonning ichki kurashlariga, hissiy holatiga qaratadi. Badiiy vositalar, metafora va ichki monologlar yordamida qahramonning ruhiy holati ochiladi. Bu esa hikoyaga realistik va dramatik effekt beradi. Yordamchi obrazlar qahramon xarakteri yortib beriladi.

Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasi bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Hikoya ayollarni o'z ichki dunyolariga nazar solishga, o'z his-tuygularini tahlil qilishga o'rgatadi. Bu zamonaviy jamiyatda tez-tez uchraydigan ruhiy tushkunlik va ichki bo'shliqqa qarshi turishga yordam beruvchi o'ziga xos ruhiy darslik vazifasini o'taydi. Asar sadoqat, kechirimlilik va oilaviy qadriyatlarning naqadar muhimligini yana bir bor eslatdi. "Ayol" hikoyasi chuqur falsafiy va psixologik qatlamlarga ega bolganligi sababli, u o'zbek nasrining yetuk namunasi. U yosh ijodkorlar uchun ham psixologik nasr yaratish borasida muhim maktab vazifasini bajaradi.

Xulosa sifatida shuni ta`kidlash joizki , Zulfiya Qurolboy qizining har bir asarida ayol obraziga alohida e`tibor berilgan va ayol ruhiyat va ichki olami mahorat bilan ochib bergan. Shu jumladan , ‘Ayol’ hikoyasida bosh obraz – Nazokat orqali real hayotda , hech qanday bo`rttirishlarsiz hayotiy tasvirlagani hikoyaning badiiy saviyasiga yanada joziba bag`ishlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1) Zulfiya Qurolboy qizi “Ayol”. –Toshkent.: G`afur G`ulom nomidagi nashiryot matbaa uyi , 2005
- 2) Umurov H. “ Badiiy ijod asoslari ” .-Toshkent.: O`zbekiston .2001
- 3) S.Abdusalomov “ Zulfiya Qurolboy qizi ijodida ayol timsoli ” dissertatsiya Qarshi . 2012
- 4) Z.Qurolboy qizi “ Ayol ” hikoyalar to`plami . Toshkent.: G`afur G`ulom nomidagi nashiryot ,2019
- 5) Qayumov L. “ Zamondoshlar ” .G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashiryoti .Toshkent.:1985